

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-noyabr oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra Viloyatda 2 980 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 745 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,0 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 674 tasi (22,6 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 269 tasi (9,0 %) mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 213 tasi (7,1 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-dekabr holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy koʻrsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki maʼlumotlar boʻyicha 2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 16 074,0 mlrd soʻnlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,1 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd soʻn	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	16 074,0	109,1
Termiz shahri	1844,3	110,5
tumanlar:		
Angor tumani	671,3	112,8
Bandixon tumani	371,2	115,1
Boysun tumani	251,3	109,4
Denov tumani	1186,5	107,6
Jarqoʻgʻon tumani	1338,8	107,4
Qumqoʻgʻon tumani	952,0	109,8
Qiziriq tumani	378,2	106,8
Muzrabot tumani	784,2	112,4
Oltinsoy tumani	361,1	109,5
Sariosiyo tumani	917,4	107,6
Termiz tumani	1530,4	144,7
Uzun tumani	430,7	110,3
Sherobod tumani	854,2	107,3
Shoʻlchi tumani	954,7	112,4

Mavzuga doir koʻrsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz tumanida (17 361,7 ming soʻn), Termiz shaharda (8 797,6 ming soʻn), Jarqoʻgʻon (5 446,4 ming soʻn) tumanlarida oʻrtacha viloyat darajasi koʻrsatkichidan (5 412,5 ming soʻn) sezilarli darajada yuqoriligini koʻrsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning oʻsish surʼati 105,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, Termiz tumanida (140,5 %), Bandixon tumanida (112,0 %) Angor tumanida (110,4 %), Muzrabot tumanida (110,2 %) qayd etilib viloyat koʻrsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-noyabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, 14 514,3 mlrd soʻmni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (90,3 %) ni tashkil etgan holda togʻkon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 544,0 mlrd soʻm (3,4 %), elektr gaz bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashda 659,9 mlrd soʻm (4,1 %) hamda suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilishda 355,7 mlrd soʻm (2,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari boʻyicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-noyabr oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda 78,5 ming tonna yumshoq bugʻdoy va spelta uni (1,9 m ga koʻpaygan), 3 055,4 aroq ming l 100%li spirt aroq mahsulotlari (26,7 m. ga koʻpaygan) hamda 718,5 ming tonna tarkibida 15 %dan koʻp spirt boʻlgan boshqa tabiiy uzum vinolari-ming l (6,5 m. ga) ga koʻpaygan), shuningdek 58,6 ming tonna xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), jumladan bitumsimon jinslardan olingan neft-ming t (9,3 % ga), 20, 8 tabiiy qumlar-t (35,4 % ga kamaygan).

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar- noyabr *	2025-yil yanvar- noyabr
Aroq, ming litr	124,3	114,5	3 055,4
Qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna	14656	16 176	30 315
Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna	27203	29 585	33712
Neft bitumi, ming t	49,0	42,8	38,3
Tabiiy qumlar, ming t	19,5	32,2	20,8
Toshkoʻnir, ming t	306,7	660,8	702,9
Xom neft, ming t	72,8	64,6	58,6
Boshqa paxta chigiti, ming t	31,6	20,0	42,3
Kepak, ming t	9,7	11,8	26,4
Portlandsement, ming t	875,3	700,7	346,4
Zargarlar tayyorlagan oltin va kumush buyumlar va ularning qismlari, t	-	-	0,9

**2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan maʼlumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir koʻrsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 18,2 % (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,1 %), toʻqimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,7 % (2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,3 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 0,9 %), oʻrta-yuqori texnologiyali 0,6 % (0,8 %), oʻrta-quyi texnologiyali 24,4 % (26,6 %), quyi texnologiyali 74,0 % (71,7 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-noyabr oylarida oʻtgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 91,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 72,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Elektrenergiya, mln.kvt.s	425,3	613,6	559,6
Iссиqlik energiyasi, ming gkal	21,1	20,9	15,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yoqotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 7,8 m. ga shuningdek, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo qotish uchun ishlov berish bo yicha xizmatlar 2,9 m. ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr*	2024-yil yanvar-noyabr*	2025-yil yanvar-noyabr
Oqova suvlarni yoqotish,transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	7,7	7,1	52,4
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	55,5	84,7	165,7
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yoqotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	14,2	17,1	49,7

*2023-2024-yillarning yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subʼektlari tomonidan 10 276,4 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 63,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik biznes subʼektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 60,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

Sanoat bu qayta ishlash, yer osti boyliklarini oʻzlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq isteʼmoli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogʻi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi boʻyicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni mahsulot turlari boʻyicha shakllantirish Surxondaryo viloyatidagi faoliyat turlari boʻyicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (OʻzDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga toʻgʻkon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsionalangan havo, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta foydalanish boʻyicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat boʻyicha statistika maʼlumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) maʼlumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subʼektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv maʼlumotlari; e) uy xoʻjaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi boʻyicha taʼrif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat koʻinishidagi dinamikasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli oʻzgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yigʻma indeksi, bazis yilning qoʻshilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar boʻyicha indeks koʻrsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan boʻlib quyidagilardan iborat:

- B** - Togʻkon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish

Metamaʼlumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun masʼul:
Sanoat va energetika
statistikasi boʻlimi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

